

**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY
VA O'RTA MAXUS TA'LIM VAZIRLIGI**

NAMANGAN DAVLAT UNIVERSITETI

«TABIIY FANLAR VA GEOGRAFIYA» FAKUL'TETI

**Geografiya yonalish 2-kurs 201-guruh talabasi
Mamadaliyev Sohobning**

Jahon geografiyasi fanidan

DUNYO XO'JALIGI VA UNING TARMOQ TARKIBI

mavzudagi

KURS ISHI



Namangan-2014

MAVZU: DUNYO XO'JALIGI VA UNING TARMOQ TARKIBI

Reja:

Kirish

- 1. Xalqaro mexnat taqsimoti-dunyo xo'jaligining moddiy asosi.**
- 2. Dunyo xo'jaligining mohiyati va bosqichlari**
- 3. Dunyo xo'jaligi va mexnat taqsimotidagi yangi jarayonlar**
- 4. Xalqaro ishlab chiqarish ixtisoslashuvi va kooperatsiya**
- 5. Hozirgi sharoitda xalqaro raqobat va uning xususiyatlari**

Xulosalar

Foydalanilgan adabiyotlar

Kiish

Jahon xo'jaligining shakllanish jarayoni amalda kishilik jamiyatining jami tarixini o'z ichiga oladi. Chunki u ishlab chiqarish kuchlarining necha ming yillar davomidagi evolutsiyasining natijasidir. Jahon xo'jaligining shakllanishi va rivojlanishi jarayonlarini o'ziga xos xususiyatlar bilan ifodalanuvchi ayrim bosqichlarga taqsimlash mumkin. Birinchi va eng uzoq davrni o'z ichiga olgan jahon xo'jaligi belgilari va regional xususiyatlari shakllana boshlagan bosqich buyuk geografik kashfiyotlar davrigacha davom etgan. Buyuk geografik kashfiyotlar natijasida xalqaro savdo Yevropa va Osiyodan keyin Yer sharining boshqa regionlarini ham qamrab oladi. Regionlar o'rtasida mahsulotlarni ayirboshlash jahon bozorini vujudga keltiradi. Ushbu bozor transport rivojlanishi munosabati bilan yana ham kengaydi, chunki dengiz transporti barcha materiklarni birlashtirishga imkon berdi. Jahon xo'jaligi XX asr arafesida to'la-to'kis shakllanib bo'ldi hamda mazkur asrning birinchi yarmida uning rivojlanishi ayrim hududlarni qamrab olish hisobiga amalga oshdi.

Jahon xo'jaligi iqtisodiy kategoriyadir, chunki uning to'g'risidagi tushun-cha ijtimoiy mehnat taqsimoti tushunchasi, xo'jalik aloqalarining baynal-milallashishi hamda xalqaro iqtisodiy integratsiyalanishi bilan aloqadordir.

Jahon xo'jaligi geografik kategoriya bo'lib, u uch yo'nalishda tadqiq etiladi:

1. Jahon xo'jaligining umumiy geograflyasi.
2. Uning tarmoqlari geograflyasi.
3. Yirik regionlar va subregionlar geograflyasi.

Jahon xo'jaligining shakllanishi va rivojlanishida xalqaro geografik mehnat taqsimotining o'rni va ahamiyati beqiyosdir. **Geografik mehnat taqsimoti** — bu ijtimoiy mehnat taqsimotining hududiy shaklidir. Geografik mehnat taqsimoti miqyosiga ko'ra rayonlararo va xalqaro mehnat taqsimotiga bolinadi. Xalqaro geografik mehnat taqsimoti jahon xo'jaligining harakatlantiravchi kuchi va negizidir.

1. Xalqaro mexnat taqsimoti-dunyo xo'jaligining moddiy asosi.

Dunyo mamlakatlari milliy xo'jaliklarini yagona jaxon xo'jaligiga birlashtirish asosida xalqaro mexnat taqsimoti (XMT) yotadi.

- XMT - ayrim mamlakatlarning o'zlari uchun qulay va manfaatli, samarali bo'lgan tabiiy sharoit va resurslar, axolining mexnat malakalari va ko'nikmalari asosida ayrim maxsulotlar yoki ularning turlarini ishlab chiqarishga ixtisoslashuvi va boshqa mamlakatlar bilan ayirboshlashidir.
- XMT mamlakatlarining iqtisodiy-ijtimoiy rivojlanish darajasi, ijtimoiy-siyosiy tuzumining xarakteridan qat'iy nazar tovarlar, xizmatlar va bilimlarning xalqaro ayriboshlanishi, ishlab chiqarishning rivojlanishi, ilmiy-texnik, savdo-sotiq soxalarda va boshqa xamkorlikning ob'ektiv asosidir.
- XMT mamlakatlar ichidagi va ular o'rtasidagi munosabatlar rivojlanishining qonuniy natijasi va ijtimoiy mexnat taqsimotining mantiqiy davomidir.
- XMTni xarakatlantiruvchi kuch va uni rag'batlantiruvchi omil mamlakatlarning unda ishtirok etishdan ko'zlangan maqsadi, manfaatlari va vazifalari iqtisodiy foyda olishga qaratilganligidir. Bu faoliyat xalqaro miqyosida qiymat qonuniga amal qilishda ko'rinadi. Qiymat qonuni tovar ishlab chiqarish sharoitida XMT afzalliklaridan foydalanishga undaydi.

Xar qanday ijtimoiy-iqtisodiy sharoitda qiymat ishlab chiqarish xarajatlari, mexnatga xaq to'lash va qo'shilgan qiymatdan iborat bo'ladi. Barcha bozorga tushayotgan tovarlar baynalminal qiymatning yoki xalqaro narxlarning shakllanishida ishtirok etadi. Tovarlar xalqaro bozorlar qonuniyatlariga mos mutanosiblikda, jumladan qiymat qonuni asosida almashtiriladi. Bunda erishiladigan iqtisodiy samara vaqtning tejalishida va mexnat unumdorligining o'sishida namoyon bo'ladi.

XMTda xar bir mamlakat milliy iqtisodiyotining tutgan o'rni quyidagilarga bog'liq:

1. iqtisodiy-geografik xolati (geostrategik mavqei);
2. agroiqlimiy shart-sharoitlari;
3. tabiiy resurslari - foydali qazilmalar bilan ta'minlanganlik darajasi;

4. xalqning, millatning mehnat an'analari, ma'lum ishlab chiqarish turlari va xizmatlarga, ko'nikmalarga egaligi;
5. mamlakatning iqtisodiy-tarixiy rivojlanish xususiyatlari;
6. ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyot darajasi;
7. mehnat resurslarining sifat tarkibi, kasbiy va madaniy intellektual darajasi, yangi kasb va xunarlarining o'zlashtirish imkoniyatlari kabi bir qator iqtisodiy va ijtimoiy ko'rsatkichlar.

XMTning mamlakatlar uchun manfaatli tomonlari quyidagilarda kuzatiladi:

- xalqaro ayrboshlashning qulay sharoitlarida eksport qilinayotgan tovarlar va xizmatlarning baynalminal va milliy qiymatlari o'rtasidagi ijobiy farqqa erishish;
- arzon import tovarlar va xizmatlar evaziga milliy tovarlar ishlab chiqarish va xizmatlardan voz kechish.

Dunyo xo'jaligining rivojlanishi insoniyat taraqqiyoti bilan chambarchas bog'liqdir. Buyuk geografik kashfiyotlar, Osiyo va Yevropa mamlakatlari o'rtasida savdo-sotiqning rivojlanishi xalqaro savdoning mintaqaviy markazlari, so'ngra xalqaro savdo va xalqaro bozorning shakllanishiga, transportning ayniqsa, dengiz transportining rivojlanishi, XVIII asr oxiri va XIX asrda Yevropada va AQSH da yirik mashinalashgan ishlab chiqarish tizimi («sanoat inqilobi») dunyo xo'jaligining shakllanishiga olib keldi. XIX asr oxiri XX asr boshlarida yirik sanoat industriyasi, transport va xalqaro bozor negizida dunyo xo'jaligi yuzaga keldi.

Dunyo xo'jaligi - milliy xo'jaliklarning umumlashmasi bo'lib, barqaror sur'atda rivojlanib borayotgan, bozor iqtisodiyotining ob'ektiv qonunlariga buysungan xolda xalqaro aloqalarning o'sib borishi bilan birgalikda o'ziga xos qarama-qarshiliklarga xam ega bo'lgan yaxlit xo'jalik tizimidir.

Dunyo xo'jaligining iqtisodiy-geografik modeli bosqichma-bosqich murakkablashib bormoqda. Agar, XIX asr oxirida «Evromarkaz» asosiy o'rin tutsa, XX asr boshlarida ikkinchi xalqaro markaz AQSH, XX asr 50-yillarida yangi xalqaro markazlar sobiq ittifoq va Yaponiya, so'ngra, Xitoy, Xindiston, neftni eksport qiluvchi Janubi-G'arbiy Osiyo mamlakatlari, Kanada, Avstraliya,

Braziliya, XX asrning 80-yillarida esa yangi industrial mamlakatlar yoki «Osiyo yo'lbarslari» - Koreya Respublikasi, Tayvan, Gonkong va Singapur yuzaga keldi xamda ko'p markazlilik shakllandi va barqaror rivojlanib bormoqda.

Yaqingacha dunyo xo'jaligi ichki tizimida to'rtta «qutb» - kapitalistik g'arb va sotsialistik SHarq «boy» SHimol va «kambag'al» Janub mavjud edi. Xozir xam SHimol va Janub o'rtasidagi ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish farqlari, yoki «markaz» va «chekka o'lka» lar o'rtasidagi farqlar asosiy qarama-qarshiliklarni ifodalaydi. CHunki, 90-yillarda dunyo xo'jaligining «chekka» xududlariga 15% xalqaro yalpi ichki maxsulotlar, 30% sanoat va qishloq xo'jaligi maxsulotlari yoki axoli jon boshiga o'rtacha 1 ming dol. yalpi ichki maxsulot to'g'ri kelsa, iqtisodiy rivojlangan mamlakatlarda axoli jon boshiga o'rtacha 15 ming dol. dan ortiq yalpi ichki maxsulot to'g'ri kelgan.

Dunyo xo'jaligining rivojlanishi. Zamonaviy dunyo xo'jaligi birinchi sanoat inqilobi davridan boshlab shakllana boshladi. Tovar ishlab chiqarishning rivojlanishi ma'lum mamlakatlarning va xududlarning u yoki bu maxsulotni ishlab chiqarishga «ixtisoslashuvi», «geografik mexnat taqsimoti»ni xamda maxsulotlarni xalqaro ayirboshlash zaruriyatini yuzaga keltirdi.

Aloxida davrlarda texnik yangiliklardan foydalanish vaqtining turlicha bo'lganligi, ichki va dunyo bozorida narxlarning tebranib turishi xamda ishlab chiqarishning asosiy omillari sanalmish yer, mexnat va kapital o'rtasidagi mutanosiblikning o'zgarib turishi, dunyo iqtisodiyotida - milliy xo'jaliklar va tarmoq tarkiblari rivojlanishining davriy xarakterga ega bo'lishini keltirib chiqaradi.

Rivojlanish davrlari XIX asrning boshlarida ya'ni birinchi sanoat inqilobidan keyinroq nazariy va amaliy jixatdan asoslana boshlandi. Kapitalizmning davriy buxronlari nazariyasi birinchilardan bo'lib K.Marks tomonidan ishlab chiqildi, uning fikricha ushbu buxronlarning asosiy sababi ishlab chiqarishning asosiy fondlari (jixozlar)ning almashtirish muxlati bilan bog'liqdir. Keyinchalik ortiqcha ishlab chiqarish bilan bog'liq buxronlarning tadqiq etishga bag'ishlangan ilmiy asarlar ko'plab e'lon qilindi.

Biroq dunyo xo'jaligining uzoq muddatli rivojlanishi shkalasidagi o'rnini aniqlashda (1892-1928 yillarda) rus iqtisodchisi N.D.Kondrat'ev tomonidan birinchi marta katta bosqichlar nazariyasi - «uzun to'lqin»lar taklif etildi. Keyinchalik bu nazariya yanada rivojlantirildi va dunyo xo'jaligi tadqiqotlarida keng qo'llanilmoqda.

N.D.Kondrat'ev nazariyasi va boshqa qator tadqiqotlar asosida dunyo xo'jaligi rivojlanishida 3 ta katta bosqichni - industriyalashgacha bo'lgan rivojlanish, industriyalash bosqichi, industriyalashdan keyingi rivojlanish bosqichini, uchta - birinchi, ikkinchi va uchinchi sanoat inqiloblarini xamda «uzun to'lqinlar» davrlarini, ya'ni N.D.Kondrat'ev belgilagan besh davrni ko'rsatib o'tish mumkin.

Xunarmandchilik va manufaktura ishlab chiqarishi xukmronlik qilgan industriyalashgacha bo'lgan bosqich boshlang'ich davr deb ataladi.

To'rtta «uzun to'lqin»ga teng keluvchi birinchi va ikkinchi sanoat inqiloblari davrida quyidagilar yetakchi mavqega ega bo'ldilar. **Birinchi davrda** - tikuvchilik va xunarmandchilik; **ikkinchi davrda**-ko'mir qazib chiqarish, qora metallarni eritish, tikuvchilik; **uchinchi davrda** - metallurgiya, kimyo va og'ir mashinasozlik; **to'rtinchi davrda** - avtomobilsozlik, elektronika, organik kimyo, mashinasozlikning turli tarmoqlari.

Ushbu to'rt davr industriyalash bosqichiga to'g'ri keladi. **Beshinchi davr** esa rivojlangan davlatlarda industriyalashdan keyingi rivojlanish bosqichiga to'g'ri keladi va uchinchi sanoat inqilobini anglatadi. Ushbu davrda elektronika, lazer texnikasi, murakkab kimyo, biotexnologiya va gen injineriyasi kabi tarmoqlar yetakchi mavqega ega bo'ldi.

Xar bir bosqich, sanoat inqilobi va N.D.Kondrat'ev davrlarining boshlanish va tugallanish vaqti keskin belgilab qo'yilmaydi. Ushbu masalada ilmiy-texnik taraqqiyotning tezlashuvidan kelib chiquvchi noan'aviy yondashuv muxim ahamiyatga egadir. Ushbu yondashuvga asosan G'arbiy Yevropaning rivojlangan davlatlarida bu davrlarni quyidagicha belgilash mumkin. **Birinchi davr** - 1770-1830 yillar; **Ikkinchi davr** - 1830-1880 yillar; **Uchinchi davr** - 1880-1930 yillar;

Turtinchi davr - 1930-1970 yillar; **Beshinchi davr** - 1970 yildan hozirgi davrgacha.

Xar bir davr uchun o'zining o'rtacha axoli jon boshiga to'g'ri keladigan daromadi (o'zgarmas narxlar bilan), «texnologik narvon» pog'onalari xamda ishlab chiqarishning tashkiliy shakllari xosdir (2-jadval). Masalan, boshlang'ich davr uchun (axoli jon boshiga 50-80 AQSH doll. (1960 yil kursi bo'yicha) to'g'ri kelgan.

N.D.Kondrat'ev fikricha «uzun to'lqinlar» endogen xarakterga ega, ya'ni u bozor iqtisodiyoti xo'jaligiga xos bo'lib, ushbu xo'jalikning o'z-o'zini tartibga solishi uchun sharoit yaratadi. Rivojlanishdagi ko'tarilish va pasayish davrlari tabiiy xoldir, ularni oldindan bashorat qilish mumkin xamda ularga moslashish va ushbu bosqichlarni tashqi ta'sir, ya'ni davlat tomonidan boshqarish yo'li bilan tartibga solish mumkin. Mazkur mexanizmning bir ko'rinishi sifatida 30-yillarda J.M.Keyns tomonidan taklif etilgan va 1929-1933 yillardagi kapitalizm buxronidan so'ng qo'llanilgan ssuda foizi stavkalari yordamida tartibga solish uslubini ko'rsatish mumkin.

N.D.Kondrat'ev fikricha, taxminan 40-50 yil davom etadigan «uzun to'lqinlar» ning moddiy sabablari «kapitalning asosiy ne'matlari»ning o'zgarib turishi bilan bog'liqdir. Ushbu o'zgarishlardan uzoq muddatli iqtisodiy mutanosiblikni buzuvchi xamda nisbatan osayishta evolyutsion va ekstensiv rivojlanish bosqichlarini, inqilobiy va intensiv rivojlanish bosqichlari bilan almashtiruvchi ilmiy-texnika taraqqiyoti (progressi) aloxida rol' o'ynaydi.

Inqilobiy bosqichlarning boshlanishi dunyo xo'jaligining energetik, texnik va ishlab chiqarish asosi xamda xududiy tarmoq tarkibi va tashkiliy tuzilmasini keskin o'zgartirishga sharoit yaratuvchi yangiliklar majmuasini joriy etish bilan bog'liqdir. N.D.Kondrat'ev nazariyasi, boshqa tadqiqotchilarning gipotezalaridan farq qilib, yangi «turtki» boshlanishini bildiruvchi ichki va tashqi omillar mutanosibligi mavjudligiga e'tiborini qaratadi.

Yangi to'lqin ekstensiv bosqichda keng tarqalgan texnologiyalarning ma'naviy eskirishi sababli uning rivojlanish cho'qqisiga erishilgan vaqtdan

boshlanadi. Kapitalning to'planishi uning nisbatan qadrsizlanishiga olib keladi. Ssuda foizlari va foyda me'yorlari shu darajada pasayadiki, bu xol yangi texnika va texnologiyaga tavakkaliga investitsiya solishning samarliligini ta'minlaydi.

Katta xajmdagi yangi qurilishlar ko'lamini yangi korxonalarning ishga tushishi, yangi tarmoqlarning yuzaga kelishi, bozorlarda yangi maxsulotlarni paydo bo'lishi va boshqalar ko'tarilish bosqichi boshlanganligidan dalolat beradi. Ko'tarilish jarayoni o'zining yuqori bosqichiga yetgandan so'ng kapital va yangiliklarning tadbqiq qilish zaxiralari tugaydi va ekstensiv rivojlanish bosqichi boshlanadi.

SHuni aloxida ta'kidlash joizki, N.D.Kondrat'ev fikricha insoniyat xayotida daromad, qo'l mexnati va manufaktura muxim axamiyatga ega (2-jadval):

Birinchi davr uchun - axoli jon boshiga 80-200 AQSH doll. daromad, mexanizatsiya, erkin raqobat va xususiy firmalar;

Ikkinchi davr uchun - axoli jon boshiga 200-700 AQSH doll. daromad, ishlab chiqarishni mexanizatsiyalashtirishning davom etishi va monopolizm;

Uchinchi davr uchun-axoli jon boshiga 700-2000 AQSH doll. daromad, ishlab chiqarishni kompleks mexanizatsiyalash va avtomatlashtirishning boshlanishi;

To'rtinchi davr uchun - axoli jon boshiga 2000-4000 AQSH doll. daromad, ishlab chiqarishda yuqoridagi jarayonlarning davom etishi va davlat monopolistik birlashmalarining rivojlanishi;

Beshinchi davr uchun - axoli jon boshiga 4000-20000 AQSH doll. daromad, muttasil avtomatlashtirish, transmilliy kompaniyalar va kichik firmalarning birikuvi xosdir.

Asta-sekin keskin raqobat kurashlari ostida, yuksalish va buxronlar sharoitida milliy va xalqaro maxsulotlar va fondlar birjalari tizimi shakllandi, busiz yirik ko'lamdagi xalqaro savdoni iqtisodiy faoliyatning asosiy shakli sifatida aksionerlik jamiyatlarini tashkil etish va kapitalni jalb etish aslo mumkin emas. Milliy xo'jaliklarning turli sur'atlarda rivojlanishi va umumiy rivojlanishdagi xar-xil sur'atlar mavjudligi qonuniyati N.D.Kondrat'ev davrlarining turli mamlakat va xududlarda «kapitalizmning notekis rivojlanishi» ga mos tarzda kechishda yaqqol

namoyon bo'ldi va dunyo xo'jaligi tizimida bu turlicha nazariy va empirik tadqiqotlar ob'ektiga aylandi.

Umuman olganda aloxida mamlakat yoki xududlar rivojlanishning muayyan bosqichi yoki davrini boshdan kechirayotganligini aniqlash uchun axolining tarmoqlar bo'yicha bandligi statistikasi taxlil etiladi. Eng yaqqol ko'rsatkich - bu milliy xo'jalikning birlamchi, ikkilamchi, uchlamchi, turtlamchi sektorlarida ish bilan mashg'ul bo'lgan axoli sonining mo'tanosibligidir. Masalan, birlamchi sektor qishloq xo'jaligi va qazib olish sanoatida iqtisodiy rivojlangan mamlakatlarda 2-8% axoli band, xolos.

2-jadval

Dunyo xo'jaligining rivojlanish bosqichlari

Bosqich rivojlanishining belgilari	Industriya- lashgacha boʻlgan bosqich	Industriyalash bosqichi				Industriyalashdan keyingi rivojlanish bosqichi
		birinchi sanoat inqilobi		ikkinchi sanoat inqilobi		
	Boshlangʻich davr	1-davr	2-davr	3-davr	4-davr	5-davr
Axoli jon boshiga daromad. (AQSH doll. 1960y kursi boʻyicha)	50-80	80-200	200-700	700-2000	2000- 4000	4000-20000

«Texnologik narvon» pog'onalari	Qo'l mexnati	Mexanizatsiyalashti rish	Kompleks mexani- zatsiyalashtirish, avtomatlashti rishning boshlanishi	Avtomatlashtiri sh tizimlari
Tashkiliy shakllar rivojlanishi	Manu faktura	Erkin raqobat; xususiy firma, xissador lik jamiyatlari	Monopolizm; zavod, davlat monopolistik kompaniyalari; konveyer	Transmil liy kompaniya lar va kichik firmalar

Birlamchi sektordagi ish bilan mashg'ul axoli sonining qisqarishuvining barxam topishini bildirmaydi, zero iqtisodiy rivojlangan mamlakatlarda ushbu sektor ishlab chiqarish xajmi va jaxon bozorlariga maxsulot yetkazib berish xajmi jixatidan yetakchi mavqeini egallaydi. Agrar sektorda ishlovchilar sonining qisqarishi eng avvalo samarali texnologiyalarning qo'llanilishi, o'simliklarni ximoyalash vositalaridan foydalanish bilan bog'liq bo'lib, ish bilan band axolining asosiy qismi agrobiznesning boshqa soxalari sanalmish ilmiy-tadqiqot, maslaxat xizmati, saqlash va qayta ishlash, marketing va x.k.da xizmat qilishadi.

Rivojlangan davlatlardagi ilmiy tadqiqot va tajriba-konstruktorlik ishlari xajmi dunyo xo'jaligining dinamikasini belgilaydi. Tashkiliy jixatdan esa xalqaro mexnat taqsimoti ko'proq **transmilliy korporatsiyalar** (TMK) majmuasi bilan bog'liqdir. 1990 yillarda maxsulot ayirboshlashning 2G'3 qismi aynan TMKlarga va shu bilan birga ushbu ayirboshlashning 1G'3 qismi TMKlarning turli mamlakatlarida joylashgan filiallari o'rtasidagi aloqalari xissasiga to'g'ri keldi. Zamonaviy dunyo xo'jaligi tizimining shakllanishi ko'p bosqichli jarayon bo'lib ko'p ukladli xo'jaliklarning saqlanib qolishi va dunyo mamlakatlari rivojlanishning turli bosqichlarida bo'lishlari asosida amalga oshadi.

Dunyo xo'jaligining muxim qirralaridan biri norasmiy sektor bo'lib ushbu sektor dunyoning ko'plab davlatlarida keng yoyilgandir. Ushbu sektor faoliyatning turli xillari, shu jumladan, maxsulot ishlab chiqarish, savdo va boshqa xizmatlar ko'rsatish bilan mavjud yuridik va soliq tartibotlari chegarasidan chiqqan xolda shug'ullanadi.

Norasmiy sektorning asosiy qismini qonun tomonidan taqiqlangan maxsulotlarni ishlab chiqarish va xizmat turlarini ko'rsatish, jumladan narkobiznes, parnobiznes, qurol-yarog', valyuta va qimmatbaxo metallarni noqonuniy ravishda sotish tashkil etadi. Faoliyatning ushbu turlari «qora bozor» ning paydo bo'lishiga sharoit yaratadi. Umuman, norasmiy sektor xissasiga ayrim ma'lumotlarga qaraganda xalqaro yalpi maxsulotning 20% ga qadar qismi to'g'ri keladi.

SHu tariqa, dunyo xo'jaligining xozirgi zamon global geografik tizimi uchun turli bosqichlilik xolati xosdir, ya'ni dunyoning ko'plab mamlakatlari bir vaqtning o'zida rivojlanishning turli bosqichlarini post industrial, industrial va industrlashtirishgacha va Kondrat'evning «besh» uzun to'lqinlari davrlarini boshdan kechirmoqdalar. Aynan, ushbu xolat dunyo xo'jaligini makon jixatidan o'zini tashkil etish qobiliyatiga ega ekanligini bildiradi. Iqtisodiy jixatdan rivojlangan mamlakatlarning postindustrial bosqichiga o'tishlari oldingi davrlardagi tarmoqlarning siljishi - ya'ni qazib olish va qayta ishlash sanoatining ko'plab tarmoqlarini industirlash bosqichi boshlangan mamlakatlar va xududlarga ko'chib o'tish jarayonlari bilan bog'liqdir.

Milliy xo'jaliklarning jaxon xo'jaligiga qo'shilish jarayoni bosqichlari. Dunyo xo'jaligi juda murakkab tizim bo'lib, uning tarkibi ko'plab elementlardan (tizimlar) iborat. Bu tizimning asosini xalqaro va ayrim milliy davlatlar doirasida moddiy ishlab chiqarish va ma'naviyatning iste'moli, taqsimlanishi va ayrboshlashi tashkil etadi. Bu bosqichlarning xar biri xam xalqaro (global) xam mamlakatlar doirasida o'zining roli va o'rni bilan dunyo xo'jalik tizimining faoliyatiga turlicha ta'sir qiladi.

Milliy xo'jalik majmualari dunyo xo'jaligi tizimining zaruriy bo'laklari xisoblanadi. Biroq, ushbu xolatni tadqiq etishda xalqaro mexnat taqsimotida ishtirok etuvchi xar bir tashkilot yoki muassasa xamda xar qanday tarmoq yoki faoliyat turini o'zida mujassam etadigan resurslarning majmuasini nazarda tutmoq lozim. Xar bir xo'jalik birligi firma, sanoat korxonasi, transport firmasi, bank va boshqalar o'z mamlakatlaridagi ma'lum tarmoqqa xizmat ko'rsatishlari, xududiy yoki xalqaro axamiyatga ega bo'lishlari xamda xalqaro savdo jarayonida ishtirok etishlari lozim. Albatta, dunyo bozorining asosiy qismi yirik birlashmalarga tegishlidir, biroq ushbu qonuniyat endilikda ishlab chiqarish yoki xizmat ko'rsatishning nixoyat katta xajmga ega bo'lishini talab etmaydi. Bu narsa tarmoq turi va taqdim etilayotgan maxsulot va xizmatlar xarakteri bilan xam bog'liqdir.

SHuning uchun xozirgi vaqtda xo'jalik faoliyatining globallashuvi sharoitida dunyo xo'jaligi o'z tarkibiga iqtisodiy faoliyatning barcha turlarini qamrab oladi va

ularga bevosita va bilvosita ta'sir o'tkazadi. Xozirgi vaqtda xalqaro ayirboshlashda faol ishtirok etuvchi va o'z faoliyatini ichki bozor bilan cheklab qo'yuvchi firmalar, kompaniyalar va korxonalar orasida aniq chegara o'tkazish qiyindir.

Natijada, makon ierarxiasining yuqori pog'onalarini dunyo xo'jaligining xududiy va tarmoq tuzilmalaridan iborat integratsion birlashmalar, milliy xo'jalik majmualari, tarmoq va tarmoqlararo milliy korporatsiyalar egallashadi. Ushbu tizimchalar tarkibiga shartli ravishda birlamchi, ikkilamchi, uchlamchi, turtlamchi va aloxida tarmoqlar va faoliyat turlarini kirgizish mumkin. **Birlamchi tarmoqqa** - an'anaviy tarzda, qishloq xo'jaligi, o'rmon xo'jaligi, baliq xo'jaligi; **ikkilamchi tarmoqqa** - qayta ishlash sanoati tarmoqlari; **uchlamchi tarmoqqa** - transport va xizmat ko'rsatish tarmoqlari; **to'rtlamchi tarmoqqa** - informatsion faoliyatning yangi turlari, boshqaruvda ma'lumotlar yig'ish, qayta ishlash va foydalanish, bank - moliya soxalari, marketing va konsalting xizmatlari kabilar kiradi.

Faoliyatning ushbu turiga endilikda ilmiy-tadqiqotlar va tajriba-konstruktorlik tadqiqotlari yuksak texnologiyaning tadbiq etish va ilmtalab ishlab chiqarish va faoliyatining boshqa turlari xam kiritilmoqda.

Dunyo xo'jaligining faoliyat ko'rsatishida asosiy rol o'ynovchi uchta geografik iqtisodiy va informatsion makonlar doirasida faoliyat ko'rsatuvchi tizimlar muxim ahamiyatga ega.

Geografik makon - bu zamonaviy aloqa va transport turlari bo'lib busiz birorta iqtisodiy markaz faoliyat ko'rsata olmaydi. Xozirgi paytda dunyoda aloqaning barcha turlari - xalqaro, milliy va maxalliy temir yo'l, avtomobil', daryo, dengiz, xavo transporti, quvur transporti va EUL¹ yo'lga qo'yilgan. Aloqa yo'ldoshlari va zamonaviy qabul sistemalari yordamida yer yuzining xoxlagan nuqtasi bilan aloqa o'rnatish imkoniyati yaratildi. Yuk tashuvchi va yo'lovchi tashish transportlari turli xil yuklar va yo'lovchilarni istalgan joyga yetkazib borish imkoniyatiga egadir. Transport va aloqa tizimchasi (podsistemi) ning tashkiliy shakllari aviakompaniyalar, suv transporti firmalari, temir yo'l kompaniyalari,

¹ ЭУЛ- электр узатиш линиялари.

aloqa tizimlari bo'lib, ularning faoliyati xalqaro shartnomalar majmuasi asosida tartibga solib boriladi.

Iqtisodiy makon - tizim tashkil etuvchi vazifasini dunyo moliya muassasalari amalga oshiradi. Ular o'rtasida quyidagilar yetakchi mavqega egadirlar. Jaxon banki, Xalqaro Valyuta fondi, xalqaro savdo tashkilotiga aylantirilgan ta'riflar va savdo bo'yicha Bosh shartnoma - xozirgi JST² xamda AQSH (federal rezerv tizimi) Buyuk Britaniya, Frantsiya, GFR va Yaponiya markaziy banklaridir. Aynan ushbu tashkilotlar «oltin standartlar» dan voz kechilganidan so'ng moliyaviy xisob-kitobning asosi sanalmish AQSH dollari, funt-sterling, frank, Germaniya markasi va Yaponiya ienasi kabi val'talarning roli va mavqeini ta'min etadi. 2002 yil yanvar oyidan boshlab ushbu vazifalarni Yevropa Ittifoqining yagona valyutasi sanalmish «evro» muvaffaqiyatli bajarmoqda. Dunyo moliyaviy tizimining muntazam faoliyat ko'rsatishda «xalqaro seyf» SHvetsariya banklari kontsortsiumi va Angliyaning «Lloyd» kompaniyasi kabi yirik sug'urta kompaniyalarining xam xizmati beqiyosdir.

Qator tadqiqotchilarning fikrlaricha, dunyo xo'jaligini shakllantirishda informatsion makon, ya'ni xulq-atvor stereotiplari, g'oyalar va inson ma'naviy xayotining boshqa qirralari kabi qadriyatlar tizimi xam yetakchi mavqega ega bo'lmoqda. Ushbu muammolar falsafa, jamiyatshunoslik, ruxiyatshunoslik, madaniyatshunoslik kabi fanlar tomonidan yetarlicha o'rganilgan bo'lsada, biroq ularning dunyo taraqqiyoti xamda dunyo xo'jaligi xududiy-tarmoq tuzilmasini faoliyat ko'rsatishdagi rolini xar tomonlama aniqlash aloxida e'tibor berishni taqozo qiladi.

Dunyo xo'jaligining informatsion makonida integratsion rolni eng avvalo iste'mol jamiyati stereotiplari o'ynaydi. Industriallashgan jamiyatning shakllanish davridayoq ommaviy ishlab chiqarish va «davlatning umumiy farovonligi» (Gelbreyt) stereotiplarining faol rivojlanishi ko'zatildi va bu «iste'mol obro' - e'tibori»dan boshlab ishlab chiqarishni gurkirab rivojlanishi, bozorlarning

² XCT – Xalqaro Savdo Tashkiloti

maxsulotlar, ayniqsa uzoq muddat foydalaniladigan maxsulotlar bilan to'lib toshishi kuzatildi.

Keyinchalik iqtisodiy rivojlangan davlatlar o'rtamiyona qatlamining extiyoj darajasiga va tarkibiga erishish ko'plab mamlakatlar axolisining asosiy maqsadlariga aylandi. Bu xolat birinchi marta 1940 yillar oxirlarida amerika iqtisodchi olimi J.D'yuzenberri tomonidan asoslangan «namoyish samarasi» bilan bog'liqdir. Dastavval matbuot vositalari orqali Gollivud fil'mlarining namoyish etilishi, keyinchalik esa televizion seriallar va boshqa turdagi reklama maxsulotlarining paydo bo'lishi ushbu ustivor extiyojning shakllanishi va rivojlanishiga katta imkoniyat yaratadi.

«Talab-taklif» zanjiridagi qayta aloqalarning qonuniyatlari informatsion makonning ishlab chiqarishning o'sishi va iste'mol maxsulotlari xalqaro bozorlarini rivojlantirishdagi rolini yanada ortiradi va tarmoqlararo aloqalarning mavjudligi sababli dunyo xo'jaligining barcha tarmoqlarini rivojlanishiga kuchli turtki beradi. Xozirgi paytda eng avvalo katta xarajatli reklama kompaniyalari xisobiga bu jarayon dunyo xo'jaligining barcha tarmoqlarini rivojlantirish uchun sharoit yaratdi va agar, ta'bir joiz bo'lsa, o'ziga xos «doping»ga aylandi. Xozirgi zamonda xo'jalik yuritishning biror bir turi busiz faoliyat ko'rsata olmaydi.

SHu tariqa, iqtisodiy manfaatlar nuqtai nazaridan o'zaro chambarchas bog'liq bo'lgan tizimchalar, elementlar va oqimlar dunyo xo'jaligining xududiy - tarmoqli tuzilmaga ega ekanligidan dalolat beradi. Ushbu tizimning o'ta murakkabligi va yuqori darajadagi noaniqligi dunyo xo'jaligining xususan, uning eng nozik sanalgan moliya-valyuta tarmog'ini tartibga solib turuvchi turli - tuman mexanizmlariga extiyoj seziladi. SHu bilan birga dunyo xo'jaligining rivojlanishi uning shakllanishining tarixiy shart-sharoitlari va ichki qaram-qarshiliklari bilan bog'liqdir.

Dunyo xo'jaligining XX asrda rivojlanish jarayonlarini uch bosqichga bo'lish mumkin.

Birinchi bosqich - XX asrning 20-30 yillari oralig'ida bo'lib dunyo xo'jaligining rivojlanishida inqirozli jarayonlar bilan ajralib turadi. Rossiyadagi

1917 yil voqealari va G'arb mamlakatlarining iqtisodiy qamali xalqaro aloqalarning avvalgi xolatlarini tiklay olmaydi. CHuqur ijtimoiy-iqtisodiy inqiroz dunyo xo'jaligi tizimidagi barcha mamlakatlarni qamrab oldi va iqtisodiy aloqalarning beqarorligini kuchaytirdi. Birinchi jaxon urushi va «Buyuk depressiya» (turg'unlik) davri barcha bosh mamlakatlar iqtisodiyotiga kuchli ta'sir ko'rsatdi.

Ikkinchi bosqich - XX asrning 40-80 yillarini o'z ichiga oladi va xalqaro iqtisodiyotda tadbirkorlik kapitalining intensiv o'sishi bilan xarakterlanadi. Bu bosqichda iqtisodiy rivojlangan mamlakatlar dunyo xo'jaligining tashkiliy-iqtisodiy rivojlanish ko'rsatkichlarga katta ta'sir ko'rsatdi. Ishlab chiqarish aloqalarida transmilliy korporatsiyalar - maxsulot ishlab chiqarish, uning realizatsiyasi, xisob-kitobi, kreditlash tizimidan iborat baynalminal (xalqaro) ishlab chiqarish majmualarini shakllantiradilar. Bu bosqichda dunyo xo'jaligida muxim jarayonlar:

a) AQSH ning iqtisodiy qudrati yuksaldi va ikkinchi jaxon urushidan keyingi G'arbiy Yevropa mamlakatlariga (Marshall rejasi, 1951 yil) katta iqtisodiy yordam ko'rsatdi;

b) Mustamlakachilik tuzumi yemirilgandan so'ng bunday iqtisodiy yordam yangi suveren davlatlarga qaratildi va 90-yillarda dunyo xo'jalik tizimida rivojlanayotgan mamlakatlar guruxi yuzaga keldi.

50-80 yillarda AQSH iqtisodiy rivojlanish darajasiga boshqa sanoati rivojlangan mamlakatlar (G'arbiy Yevropa va Yaponiya) iqtisodiy rivojlanish darajasining yaqinlashuv jarayoni boshlandi.

Ammo, xar bir aloxida mamlakat Amerika iqtisodiyotidagi rivojlanish darajasiga yetarli darajada yaqinlasha olmadi. Bu bilan birga AQSH ning iqtisodiy ustunligi ko'p tomonlama tizimda yanada kuchaydi.

70-80 yillardagi jaxon iqtisodiyotidagi taraqqiyot iqtisodiy avtarkiya tendentsiyasini davom ettirmadi. Aksincha, tashqi iqtisodiy aloqalarni kengaytirish va chuqurlashtirishning barqaror jarayonlari yuzaga keldi. SHunday qilib, 60-80 yillarning birinchi yarmida sanoati rivojlangan mamlakatlarning eksport kvotasi

kamaymadi, aksincha, 11% dan, 21% gacha o'sdi, rivojlanayotgan mamlakatlarda esa 18-20% ga o'sdi.

Dunyo xo'jaligining rivojlanishidagi yangi uchinchi bosqich boshlanishi XX asrning oxirgi 10 yilligiga to'g'ri keldi. Bu davrda geografik kengliklarni o'zlashtirish darajasi o'sdi, iqtisodiy o'zaro xamkorlik va o'zaro bog'liqlik kuchaydi. Xozirgi zamon dunyo xo'jaligi bir xil bo'lmay, g'oyat turlichadir. Unga ijtimoiy tarkibi, siyosiy tuzilishi, rivojlanish darajasi turlicha bo'lgan, ishlab chiqarish kuchlari va ishlab chiqarish munosabatlari, shuningdek, xalqaro iqtisodiy munosabatlarda ishtiroki, ko'lami, xarakteri va uslublari xilma-xil mamlakatlar kiradi.

Jaxon xo'jaligida yetakchi o'rinni 7 sanoati rivojlangan mamlakatlar AQSH, Yaponiya, Kanada, GFR, Frantsiya, Buyuk Britaniya va Italiya egallaydi. Sanoati rivojlangan mamlakatlar o'rtasida ular xissasiga sanoat ishlab chiqarishning 80% i va jaxon sanoati ishlab chiqarishning 60% to'g'ri keladi. SHunga mos ravishda elektroenergiya ishlab chiqarishning 60-70%, yalpi tovar va xizmatlar eksportining esa 50-60% to'g'ri keladi.

2. Dunyo xo'jaligi va mexnat taqsimotidagi yangi jarayonlar

80-90 yillarda dunyoda yuz bergan juda katta iqtisodiy-siyosiy-ijtimoiy jarayonlar dunyo xo'jaligiga, uning sifat jixatlariga kuchli ta'sir ko'rsatdi. Ikki tuzumning qarama-qarshiligining barxam topishi Yevropada, qolaversa, butun dunyoda kuchlarning yangi nisbatlariga olib keldi. Natijada, dunyodagi bir-biriga bog'liq muammolarni xal qilish mamlakatlarning rivojlanish darajasi bilangina emas balki, XMT va dunyo xo'jaligidagi ishtiroki bilan xarakterlanadi. Davrning asosiy xususiyati bu integratsiyaning umumlashuvi - kapital ishlab chiqarish va mexnatni qamrab olganligidir. Iqtisodiy integratsiya - turli milliy xo'jaliklarning baynalminallashuvi bo'lib ikki va undan ortiq milliy xo'jaliklarning yagona xo'jalik mexanizmini yaratish maqsadidagi yaqinlashuvi va uyg'unlashuvidir.

Iqtisodiy integratsiya bir-biriga yaqinlashayotgan mamlakatlar xo'jaliklarning bir-biri bilan bog'liqligi asosida yuzaga keladi va siyosiy, iqtisodiy-ijtimoiy va boshqa yo'nalishdagi muammolarni xal qilish vositasi, mavjud tabiiy shart-sharoit

va resurslardan oqilona foydalanish vositasidir. Integratsiya maqsadi - integratsiyalanayotgan mamlakatlarning jaxon bozorlaridagi savdo-sotiqda raqobatbardoshligini ta'minlash va foyda olish, zamonaviy ilmiy-texnika va texnologiya yutuqlaridan oqilona foydalanishini ta'minlashdan iboratdir.

Iqtisodiy integratsiyaning muxim sharti mamlakatlarning iqtisodiy-ijtimoiy rivojlanishi darajalarining nisbatan tengligi va bir-biri bilan chegaradoshligidir (qo'shniligi). Iqtisodiy integratsiyaning asosiy xususiyatlaridan biri - bu jarayon dastlab Yevropada (Evropa iqtisodiy xamjamiyati (EIX), Sobiq O'zaro Iqtisodiy Yordam Kengashi (O'IYoK) boshlandi va keyinchalik boshqa mintaq va mamlakatlarni xam qamrab oldi.

Integratsiya jarayoni, rivojlanish darajasiga bog'liq xolda, beshta pog'onaga ajratiladi: 1) erkin savdo mintaqasi; 2) bojxona ittifoqi; 3) umumiy bozor; 4) valyutaviy-iqtisodiy ittifoq; 5) siyosiy ittifoq.

Bu borada Yevropa iqtisodiy xamkorligi (EIX) - Yevropa Ittifoqi namuna bo'lib xizmat qiladi. Uning integratsiya soxasidagi tajribasini boshqa mintaqalarda xam qo'llash mumkin.

Xozirgi vaqtda dunyodagi ko'plab integratsiya assotsiatsiyalari YeIX tajribasiga amal qilgan xolda integratsiyaning besh pog'onasiga asoslanib ish olib bormoqdalar. Endilikda faqat pog'onali integratsiya modeliga asoslangan erkin savdo mintaqalari (Lotin Amerikasi erkin savdo assotsiatsiyasi) yoki bojxona ittifoqlari (G'arbiy Afrika bojxona ittifoqi va Markaziy Afrika iqtisodiy-bojxona ittifoqi) bilan bir qatorda iqtisodiy ittifoqlar xam tashkil etila boshlandi (EKOVAS -1975 y).

G'arbiy Yevropada Yevropa Ittifoqi (EI) 80-yillarning o'rtalaridan boshlab yagona bozor tashkil etishni maqsad qilib qo'ydi va Maastirx shartnomasini tuzib, valyutaviy-iqtisodiy ittifoqqa o'tishning tartibini belgilab oldi. 1989 yilda SHimoliy Afrika, 1994 yilda Kanada va AQSH o'rtasida erkin savdo mintaqasi tashkil etildi, ungi Meksika qo'shilishi natijasida erkin savdo assotsiatsiyasi shakllandi. Osiyo-Tinch okean mintaqasida 1989 yilda Osiyo-Tinch okean iqtisodiy korporatsiyasi (OTIK) tuzildi. Xozirda bu assotsiatsiyaga Tinch okeani

xavzasining 20 dan ortiq mamlakati a'zo bo'lib, 2020 yilga borib, uning doirasida erkin savdo mintaqasini tashkil etish to'g'risida kelishib olingan. Undan avvalroq, 1992 yilda Janubi-SHarqiy Osiyo mamlakatlari assotsiatsiyasiga a'zo bo'lgan olti mamlakat 2008 yilgacha erkin savdo assotsiatsiyasini tashkil qilish to'g'risida shartnoma tuzgan edi.

Integratsiya borasida O'zbekiston xam murakkab yo'lni bosib o'tmoqda. CHorizm davrida O'zbekiston iqtisodi umumrossiya yagona iqtisodining tarkibiy qismi sifatida Rossiya davlatiga xizmat qildi. SHo'rolar davrida vaziyat yanada murakkablashdi. O'zbekiston iqtisodi yanada maxkamroq ravishda Markazga bo'ysindirilib, yurtimizdan moddiy boyliklarning olib ketilishi avvalgidan xam tezlashdi, «rivojlangan sotsializm» yillarida «Butun ittifoq yagona iqtisodiy majmuasi» tashkil qilindi. Bularning xammasi majburiy, zo'ravonlarcha integratsiyaning yorqin misollaridir. Xolbuki, u ixtiyoriy o'zaro, manfaatdorlik asosida va tabiiy ravishda amalga oshirilishi kerak.

Katta istiqbolga ega integratsion jarayon - 1994 yili O'zbekiston, Qozog'iston va Qirg'iziston o'rtasida tuzilgan shartnoma asosida tashkil etilgan Markaziy Osiyo umumiy bozorining rivojlanishidir. Ushbu shartnomada mintaqaviy integratsion aloqalarni kuchaytirish bo'yicha qator tadbirlar ko'rsatib o'tilgan. Ular qatoriga yoqilg'i-energetika majmuini, transport va axborot tizimlarini, mintaq suv xo'jalik tizimini rivojlantirishning yagona dasturlarini ishlab chiqish; umummintaq erkin savdo xududi va bojxona ittifoqini tashkil etish; banklarararo xisob-kitoblarning samarali mintaqaviy tizimini yaratish; byudjet siyosati, pul-kredit, valyuta munosabatlarida mutanosiblikka erishish; mintaq doirasida davlatlar iqtisodiy qonunchiligini yaqinlashtirish va xuquqiy me'yoriy aktlar muvofiqligiga erishish; ko'shma korxonalar, moliya-sanoat guruxlari tuzish uchun zarur shart-sharoit yaratish; ishlab chiqarish kooperatsiyasining turli xil davlatlararo shakllarini amalga oshirishni (kooperatsiya, assotsiatsiya, birlashmalar tashkil etish) kiritish mumkin va bu tadbirlar bosqichma-bosqich amalga oshiriladi.

Iqtisodiy xayotda integratsiya bir nechta yo'nalishlarga ega:

Birinchi yo'nalish ishlab chiqarish kuchlarining baynalminallashuvi ishlab chiqarish vositalari va texnologik bilimlarni ayirboshlash, xalqaro ixtisoslashuv va kooperatsion aloqalar negizida yaxlit ishlab chiqarish va iste'mol tizimi bo'lib, bu ishlab chiqarish resurslari xalqaro moddiy - material, axborotning xalqaro umumlashuvi, tashkiliy-iqtisodiy infratuzilmalardan iborat xamkorlik jarayonini ifodalaydi.

Ikkinchi yo'nalish - XMT orqali baynalminallashuv jarayoni;

Uchinchi yo'nalish - an'anaviy xalqaro savdoning xajmi va sifat jixatining o'zgarishi negizida iqtisodiy xayotning baynalminallashuvidir. Xalqaro savdoning vazifasi «tovar-pul» oddiy formulasidan, milliy ishlab chiqarish jarayonlariga xizmat qiluvchi chegaralardan chiqib ketdi va natijada xalqaro savdo tarkibi xam o'zgardi.

To'rtinchi yo'nalish - moliya va ishlab chiqarish resurslarining xalqaro almashuv turi mamlakatlar iqtisodiy xayotining yaqinlashuvi va uyg'unlashuviga olib kelmoqda. Bu jarayon xalqaro kredit va xorij investitsiyalari shaklida amalga oshirilmoqda.

Beshinchi yo'nalish - xalqaro xamkorlikda xizmatlar ko'rsatish soxalari moddiy ishlab chiqarish soxalariga nisbatan tez rivojlanib bormoqda.

Oltinchi yo'nalish – ilmiy-texnik bilimlarning xalqaro almashuvining tez rivojlanishidir. Bu jarayon xalqaro intellektual mexnat taqsimotining shakllanishiga, ilmiy-tadqiqot va tajriba-konstruktorlik markazlarining xalqaro ixtisoslashuvi va kooperatsiyasiga olib kelmoqda.

Etтинchi yo'nalish - xalqaro ko'lamda ishchi kuchi integratsiyasi o'smoqda va bu jarayonda xamdo'stlik mamlakatlari xam ishtirok etmoqda xamda u iqtisodiy xayotni baynalminallashuvining tarkibiy qismi bo'lib qolmoqda.

Sakkizinchi yo'nalish - xalqaro miqyosda ishlab chiqarish va iste'molning baynalminallashuvi tabiiy muxitga jiddiy ta'sir etmoqda va bu soxada xalqaro xamkorlikni kun tartibiga qo'ymoqda (atrof-muxitni muxofaza qilish, Dunyo okeanini va kosmosni o'zlashtirish, rivojlanayotgan mamlakatlardagi ochlik va savodsizlikni bartaraf etish va boshqalar).

3. Xalqaro ishlab chiqarish ixtisoslashuvi va kooperatsiya

XTM va xalqaro ishlab chiqarish ixtisoslashuvi va kooperatsiya (XICHIK) bir-biriga bog'liq va ajralmas jarayon bo'lib, murakkab va ziddiyatli xarakterga egadir. XMT xalqaro kooperatsiyaga nisbatan kengroq iqtisodiy tushuncha bo'lib, xalqaro kooperatsiya XMTning shakllanishida muxim rol' o'ynaydi. O'z vaqtida ishlab chiqarishning xalqaro ixtisoslashuvi kooperatsiyaning shakllanishiga olib keladi. SHuning uchun xam xalqaro ixtisoslashuv va xalqaro kooperatsiya XMTning oddiy shakli bo'libgina qolmay, balki uning mohiyatini ifodalovchi jarayonlardir.

Ishlab chiqarishning xalqaro ixtisoslashuvi (ICHXI) mamlakatlar o'rtasidagi mexnat taqsimotining o'ziga xos shakli bo'lib, milliy ishlab chiqarishning tabaqalanishi asosida bir xil ishlab chiqarish konsentratsiyasi va mexnatning umumlashuvi, xamda aloxida mustaqil texnologik jarayonlarning mustaqil ajralib chiqishi, ichki ehtiyojlardan yuqori turgan maxsulotlar ishlab chiqaruvchi tarmoq va kichik tarmoqlarning bo'linishi orqali o'zaro tabaqalashgan milliy xo'jalik majmualarini to'ldirishdir. Yuqoridagi jarayonlar xalqaro tovar ayirboshlash, xizmatlar va ilmiy-texnik bilim va ishlanmalar (nou-xau) ayirboshlashni yanada intensivlashuviga olib kelmoqda.

ICHXIning asosiy turlari predmetlar (tayyor maxsulotlar ishlab chiqarish), detallar (maxsulotlar qismi yoki komponentlar) va texnologik yoki bosqichma-bosqich (aloxida operatsiya yoki aloxida texnologik jarayonlar) ixtisoslashuvidir. ICHXI turli tarixiy bosqichlarda barqaror o'zgarishlarni boshidan kechirmoqda. Bunga ijtimoiy ishlab chiqarishdagi chuqur o'zgarishlar, iste'molning xalqaro tarkibining o'zgarib borishi va ITI ta'siri katta bo'lmoqda.

30-yillarda dunyo xo'jaligida xalqaro tarmoqlararo ishlab chiqarish ixtisoslashuvida bir tarmoq majmuasi (ishlov beruvchi sanoat) boshqa tarmoq (qazib beruvchi tarmoq yoki qishloq xo'jaligi) maxsulotlariga asoslangan edi. 50-60 yillarda ICHXIda birinchi tarmoqlar (avtomobilsozlik, samolyotsozlik,

plastmassalar ishlab chiqarish, podshipniklar, radioapparatlar va boshqalar asosiy o'rinni egallasa, 70-80 yillarda ICHXI da ichki tarmoqlararo va iste'mol yo'nalishidagi maxsulotlar kuchaydi.

Ishlab chiqarishning xalqaro ixtisoslashuvi va kooperatsiyasining (ICHXIK) milliy ishlab chiqarish samaradorligining oshishi va xalqaro tovar aylanmasining barqaror o'sish omili sifatidagi ahamiyati katta. 70-80 yillarda mashinasozlik maxsulotlari xalqaro savdosining 40% gachasi (60-yillarda 4%) butlovchi maxsulotlar xisobidan ta'minlandi, 60-90 yillarda iqtisodiy rivojlangan mamlakatlarda mashinasozlik sanoatining detal va o'zellari va boshqa butlovchi maxsulotlari xalqaro savdosi 2 marta o'sdi. Ayniqsa, mashinasozlik sanoatida barcha turlarga ixtisoslashuv kuchaydi.

Bu jarayon, **birinchidan**, konstruktiv xususiyatlar bilan belgilangan ya'ni mashinalar, jixozlar, mexanizmlar, ko'plab komponentlardan (agregat, qism, detal') iborat bo'lib, ishlab chiqarish ixtisoslashuvini taqozo qiladi.

Ikkinchidan, mashinasozlik majmuasi o'ziga xos miqdor va sifat xususiyatlariga ega. Bu minglab nomdagi (60-yillarda 500-600 ming mashina va jixozlar, 90-yillarda 1 mln.dan ortiq mashina va jixozlar), turli xajmdagi (yakka, mayda va yirik seriyali, potok, ommaviy ishlab chiqarish) maxsulotlar ishlab chiqarishni o'z tarkibiga oldi. Konstruktiv jihatdan murakkab bo'lganligi uchun o'nlab va yuzlab mamlakatlarda minglab korxonalar kooperatsiyasini taqozo qiladi.

Uchinchidan, mashinasozlik sanoatida ishlab chiqarilayotgan maxsulotlar murakkab texnologik xususiyatlarga egadir. Milliy bozor bu maxsulotlarni ishlab chiqarishga torlik qiladi.

Ayni vaqtda, «xalqaro ixtisoslashgan tarmoq» va «xalqaro ixtisoslashgan maxsulot» tushunchalarini farqlash lozim. Xalqaro ixtisoslashgan tarmoq mamlakatlarning xalqaro ixtisoslashuvidagi xarakterini ifodalaydi, uning belgisi eksport xissasining boshqa tarmoqlardagiga nisbatan yuqoriligi va ichki tarmoqlar ixtisoslashuvi xamda kooperatsiyaning rivojlanganligidir. Xalqaro ixtisoslashgan

maxsulot ICHXIK va ishlab chiqarish dasturlarining taqsimlanishi to'g'risidagi ikki va ko'p tomonlama shartnomalar asosidagi tovarlardir (maxsulotlardir).

Xalqaro ixtisoslashgan tarmoq darajasi ko'rsatkichlariga nisbatan eksport ixtisoslashuviga ixtisoslashgan tarmoq koeffitsienti va tarmoq ishlab chiqarishning eksport kvotasi kiradi. Tarmoqning eksport ixtisoslashuvi quyidagi formula bilan aniqlanadi.

$$T_k = \frac{\mathcal{E}_m}{\mathcal{E}_{\text{oc}}} \quad (2)$$

Bu yerda, E_t - mamlakat eksportida tovarning xissasi (tarmoq tovarlarning umumlashmasi);

E_j - jaxon eksportida tovarning xissasi.

Tarmoq eksport ixtisoslashuvi koeffitsienti orqali taxminan mamlakatning xalqaro tarmoqlar ixtisoslashuvi darajasini (xolatini) aniqlash mumkin. Milliy eksport tarkibida aniq tovar va tovar guruxi xissasi yuqori bo'ladi, yoki aksincha jarayon bo'lishi mumkin. Eksport kvota esa milliy sanoatning qanchalik tashqi bozorga yo'naltirilganligini yoki tashqi bozordan ajralib qolganligini ko'rsatadi. Ishlab chiqarishda eksport kvota xissasining o'sishi mamlakatning sanoatida xalqaro aloqalarning intensivlashuvi xorijiy iste'molchiga qaratilgani va xalqaro ixtisoslashgan maxsulotning raqobatbardoshligini yaxshilanganligidan dalolat beradi.

Xalqaro ixtisoslashgan tarmoq eksport maxsulotlarida ishlov beruvchi tarmoq maxsulotlari xissasining yuqori bo'lishi ijobiy baxolanadi. Eksport maxsulotlarida qazib beruvchi sanoat va qishloq xo'jaligi maxsulotlari xissasining yuqori bo'lishi esa mamlakatning XMT dagi roli passiv ekanligini ifodalaydi.

Xalqaro ishlab chiqarish kooperatsiyasining (XICHK) ob'ektiv asosi ishlab chiqarish kuchlarining rivojlanishi darajasi va ayni vaqtda uning tarmoqlarga, ishlab chiqarish korxonalarga bo'linishidir. Tarixan qisqa muddatda ishlab chiqarishning birinchi bo'g'ini - korxona jiddiy o'zgardiki, bu ijtimoiy (xalqaro) mexnat taqsimotida o'z ifodasini topdi. Korxona tarkibida texnologik jarayonlar

bosqichlari butlovchi qismlarni ishlab chiqarishning aloxidalashuvi va uni qisman boshqa korxonalarga berish bilan sanoat mexnat taqsimotida sifat o'zgarishlari yuz beradi. Bu esa kooperatsion aloqalarning rivojlanishiga kuchli turtki berdi.

Umumiy, xususiy va yakka mexnat taqsimoti aloqadorligining xarakteri xam o'zgardi. Ayniqsa, yakka mexnat taqsimoti mamlakat ichida va mamlakatlar o'rtasidagi ijtimoiy mexnat taqsimotida sifat o'zgarishlarini yuzaga keltirdi va rivojlanishning o'ziga xos «epitsentri» vazifasini bajarmoqda.

Bu jarayon ta'sirida ijtimoiy ishlab chiqarishning nafaqat yangi tarmoqlari, balki detallar bo'yicha va texnologik ixtisoslashgan kichik tarmoq va tarmoqlar yuzaga kelmoqdaki, natijada kooperatsiya ijtimoiy ishlab chiqarishning barcha sektorlari ishlab chiqarish faoliyatining tarkibiy ajralmas qismi bo'lib qolmoqda.

ITI ta'sirida ishlab chiqarish kooperatsiyasining moddiy asoslari yaratildi. ITI xalqaro ishlab chiqarishga fanni (nou-xau) tadbqiq qilish bilan uning xarakterini xam o'zgartirdi. Natijada, XICHK ning bosh vazifasi - mexnatning kooperatsiyasi - moddiy ishlab chiqarishning va mexnat unumdorligining o'sishdan tashqari g'oyat muxim, yangi bir-nechta mamlakatlar ishlab chiqaruvchilarini birlashtirish orqali yechiladigan vazifalarni xam qo'ydi.

XICHKning asosiy belgilari:

- ⇒ SHartnomalar asosida birgalikda faoliyat olib borish uchun tomonlarning oldindan kelishuvi;
- ⇒ O'zaro kelishilgan soxalardagi sherik-korxonalar faoliyatini muvofiqlashtirish;
- ⇒ Turli mamlakatlarda ishlab chiqarish kooperatsiyasiga tortiladigan sanoat korxonalarining (firmalar) mavjudligi;
- ⇒ Kooperatsiyaning bosh ob'ektlari, tayyor maxsulotlar, komponentlar va texnologiyalar bo'yicha shartnomalar asosida mustaxkam kelishuvlar;
- ⇒ O'zaro kelishilgan dasturlardagi vazifalarning kooperatsiya maqsadlaridan kelib chiqib sherik - partnerlar o'rtasida taqsimlanishi;
- ⇒ Kooperatsiya doirasida ishlab chiqarish dasturlarini bajarishda tovarlar yetkazib berishning bir tomonlama yoki kelishilgan aloqalarining amalga oshirilishi.

Ko'rinib turibdiki, birgalikdagi faoliyat kooperatsiya a'zolaridan maxsulotlarni ishlab chiqarish, yetkazib borish, uning sifati, xajmi va kelishilgan muddatlariga qat'iy amal qilishni taqozo qiladi. XICHK keyingi yillarda «xalqaro sanoat xamkorligi» nomini olmoqda. CHunki, bu jarayon tarkibiga xilma-xil ishlab chiqarish, tadbqiqiy fanlar, texnika, savdo, texnik xizmat ko'rsatish va boshqa soxalar xam kirmoqda xamda majmual xarakter kasb etmoqda (3-jadval).

3-jadval

Xalqaro ishlab chiqarish kooperatsiyalarini sinflashtirish

Sinflashti rish tamoyillari	Kooperatsiya xarakterlari:
A) Turlar bo'yicha	Iqtisodiy kooperatsiya, sanoat xamkorligi, ishlab chiqarish kooperatsiyasi, ilmiy-texnika kooperatsiyasi, qurilish va loyixalashtirish bo'yicha kooperatsiya, maxsulotlarini sotish soxalari bo'yicha kooperatsiya, xo'jalik faoliyatining boshqa soxalari bo'yicha kooperatsiya
B) Bosqichlar bo'yicha	Ishlab chiqarishga qadar ishlab chiqarish, tijorat
V)Foydalaniladigan usullar bo'yicha	Birgalikda dasturlarni amalga oshirish, shartnomali ixtisoslashuv, qo'shma korxonalar (QK)
G) Tarkibiy aloqalar bo'yicha.	Ichki va firmalararo, ichki va tarmoqlararo, gorizontal, vertikal va aralash
D)Xududlar bo'yicha.	Ikki va undan ortiq mamlakatlar, mintaq, mamlakatlararo va xalqaro
E) Sub'ektlar (tomonlar) bo'yicha	Ikki va ko'p tomonlama
J) Ob'ektlar soni bo'yicha	Bir va ko'p predmetli

Kooperatsion aloqalarning asosiy usullari quyidagilar:

1. Birgalikda dasturlarni amalga oshirish;
2. SHartnomaviy ixtisoslashuv;
3. Qo'shma korxonalar (ishlab chiqarish) barpo qilish.

Birinchi usul - birgalikda dasturlarni amalga oshirish XICHK da ikki shaklda pudrat kooperatsiyasi va qo'shma korxonalar ko'rinishida bo'ladi. Pudrat kooperatsiyasi sanoatdagi eng qadimgi tur bo'lib, uning mohiyati shartnomaning birinchi tomoni (buyurtmachi) ikkinchi tomonga (bajaruvchi) bajariladigan ish uchun (vaqti, xajmi, sifati va boshqa) oldindan aniq talab qo'yadi. Pudrat ishlab chiqarish kooperatsiyasi ikkita ko'rinishga ya'ni «klassik» pudrat bo'yicha maxsulotlar tayyorlash va yangi maxsulot ishlab chiqarishdan iborat.

Ishlab chiqarish kooperatsiyasidagi **ikkinchi usul** shartnomali ixtisoslashuv - tomonlarning o'zaro kelishuvi asosida bir xil maxsulotlarni birgalikda ishlab chiqarish, birgalikda tadqiqotlar va ishlanmalar olib borish kabilardan iborat.

Uchinchi, qo'shma korxonalarni barpo qilish kooperatsiyaviy aloqalarda muxim o'rin tutadi va bugungi kunda eng keng tarqalgan usuldir. Bunday kooperatsion integratsiyada bir necha mamlakatlarning kapitali o'zaro kelishilgan maqsadlarini amalga oshirishda ishtirok etadi.

8.4. Xozirgi sharoitda xalqaro raqobat va uning xususiyatlari

Xozirgi sharoitda xalqaro raqobat xalqaro savdoning, bozor jarayonlarining ajralmas qismi sifatida ko'z ilg'amas ko'lamda o'sishi va keskinligi bilan ajralib turadi. Raqobatning ko'lami - tashqi savdo faoliyati ishtirokchilari sonining o'sishi, XMTida tovarlar almashinuvining va turli soxalarda xalqaro ixtisoslashuv va kooperatsiyaning kuchayishini ifodalaydi. Dunyo xo'jaligining baynalminallashuvi raqobatning asoslarini kengaytirmoqda. Bozor raqobati - kurashida yirik gigant monopoliyalar bilan bir qatorda o'rtacha, kichik va juda kichik firmalar xam ishtirok etmoqda. An'anaviy, iqtisodiy rivojlangan eksport mamlakatlari qatoriga yangi industrial mamlakatlar va bozor iqtisodiyotiga

o'tayotgan mamlakatlar guruxlari qo'shilmoqda. Xukumatlar tashqi savdo faoliyatini shakllantirishda milliy eksportchilarni xar tomonlama qo'llab quvvatlamodalar.

Xalqaro raqobatning keng yoyilishi undagi jarayonlarni tezlashtirmoqda, shakl va usullarni o'zgartirmoqda, yangi raqobatbardosh tovarlar va yangi xududlarni kashf qilishi kengaymoqda. Ayniqsa, ITR raqobatga aloxida jo'shqinlik baxsh etmoqda. Qaerda raqobat bo'lsa o'sha yerda ishlab chiqarish xarajatlarining qisqarishi, sifatning oshishi va foydaning yuqoriligi ko'zga tashlanmoqda. ITI nafaqat raqobatning asosi bo'libgina qolmay, balki uning katalizatori, xarakatlantiruvchi kuchi xam bo'lmoqda. ITI ning faol ta'siri dunyo xo'jaligining barcha bosqichlarida, aloxida firmalar, mamlakatlar va mamlakatlar guruxlari munosabatlarida xam ko'rinmoqda.

ITI yutuqlaridan keng foydalanish tovarlar nomenklaturasining doimiy yangilanib turishiga keng imkoniyat ochmoqda, bozor extiyojlariga tez moslashuvga, maxsulotlarning sifatiga bo'lgan talablarni qondirmoqda. SHuning uchun xam yangilik raqobatbardoshlikning muxim omili bo'lib qolmoqda. Natijada, yangi tovarlar - mutlaqo yangi extiyojlarni qondirish orqali (birinchi tovarlar) yangi bozorlarning yuzaga keltirmoqda, yoki yuqori darajada sifat extiyojlarini qondirish orqali ilgari ma'lum tovarlarini takomillashtirmoqda, yoki yanada kengroq iste'molchilarga yo'naltirilganligi bilan ilgari sotib olish imkoni bo'lmagan iste'molchilarga (narxi pasaytirilgan tovarlar) xam mo'ljallanmoqda.

Dunyoning sanoat maxsulotlari eksporti taxlili shuni ko'rsatmoqdaki, ITI ta'sirida tez yangilanayotgan tovarlar - integral sxemalar, EXM, kommunikatsiya vositalari, elektron jixozlar, videoappaturalar, ovoz yozish (ishlab chiqarish) vositalari, to'qimachilik jixozlari, tsellyuloza - qog'oz maxsulotlari, temir yo'l tortish vositalari, maishiy va sanoat elektronik jixozlari, aviadvigatellar, kimyo sanoati jixozlari ortib bormoqda va XXI asrning dastlabki o'n yilligida bu tovarlarga bo'lgan extiyoj ko'payishi bashorat qilinmoqda.

Mutaxassislarning tadqiqotlariga ko'ra, yangi tovarlarni ishlab chiqarishni o'zlashtirgan kompaniyalarda, uni tadbiq etgandan so'ng 10 yilda foyda

ko'rsatkichi an'anaviy tovarlar ishlab chiqarayotgan raqobatchilardan qariyb 2 marta yuqori bo'lgan. Ya'ni, tovarlarning bozordagi muvaffaqiyati, an'anaviy tovarlarga nisbatan narxining yuqoriligi, xaridorligi (sifat, yangilik, ishonchlilik) ITI vositasidagi raqobat kurashining yangi bosqichini boshlab berdi. Natijada, xilma-xil texnik va texnologik takomillashtirishlar, patentlar ustidan nazoratni kuchaytirishga urinishlar tovarlarning iste'mol xossalarini muttasil yaxshilash imkonini bermoqda va raqobatning asosiy usullaridan biriga aylandi.

Ayni vaqtda, firma va kompaniyalar xaridorlarni jalb qilish maqsadida o'z tovarlariga majmual xizmat ko'rsatish turlarini, ya'ni kafolatni va kafolatdan keyingi xizmatlarini xam amalga oshirmoqdalar. CHunonchi, ular masalan, dastgoxlar (yoki boshqa tovarlar) chiqaribgina qolmay uni sotadilar, o'rnatadilar, iste'molchi korxona (yoki mamlakat) xodimlarini ulardan foydalanishga o'rgatadilar, kafolat va kafolatdan keyingi xizmatlarini bajaradilar va boshqa xizmatlarini amalga oshirish bilan buyurtmachi manfaatlariga o'zlarining tovarlarini moslaydilar.

Raqobat kurashining usullarini narxiy va nonarxiy usullarga bo'lish mumkin. Ishlab chiqaruvchi yoki xizmat ko'rsatuvchilar tomonidan o'zi sotayotgan tovar va xizmatlarning narxlarini iste'molchilar o'zgartirishi ko'zda tutilgan bo'ladi. Sotuvchilarning bozorda narxlarni pasaytirishdan maqsadi ko'proq xaridorlarni jalb qilish, tovarlar ishlab chiqarishni ko'paytirishda raqobatchilar uchun noqulay sharoit yaratishdir. Ammo, bu jaryonni uzoq davom ettirib bo'lmaydi. CHunki, bunday ishlab chiqaruvchi daromadi tezda kamayadi. Bu esa narxiy raqobatni cheklashga olib keladi. Narxiy raqobat sotuvchilar tomonidan o'zlari sotayotgan tovarlarga monopol yuqori narx belgilash bo'lib, buning maqsadi nafaqat monopol foyda olish, balki iste'molchilarni ishlab chiqaruvchilar uchun qulay sharoitga solib qo'yishdir. Raqobatning nonarxiy usullari tovarlar narxlarining emas, balki tovarlarning iste'mol xossalarini o'zgartirishga asoslangan. Nonarxiy raqobatlarida tovarlar sifatida tabaqalashtirish muxim o'rin tutadi.

Ma'lumki, raqobatbardosh tovarni faqat raqobatbardosh firma yoki kompaniya chiqara oladi va bunday firma yoki kompaniyalarga ma'lum shart-

sharoitlar mamlakat tomonidan yaratilgan bo'lishi mumkin. Bu jarayon tadqiq qilinmoqda va diqqat bilan o'rganilmoqda. Jumladan, Jeneva shaxrida joylashgan «Boshqarish muammolari Yevropa forumi» xalqaro tashkiloti muntazam G'arbiy Yevropa mamlakatlari tovar va maxsulotlarining raqobatbardoshligini tadqiq qilib va baxolab bormoqda. Raqobatbardoshlik tushunchasi firma va kompaniyalarni, ishlab chiqarish va iste'molchiga yetkazib berish, narxiy va nonarxiy xossalari bilan iste'molchilarning jalb qilishdir.

Mamlakatlarning raqobatbardoshligini 100 dan ortiq eksport-iqtisodchilar 340 ta ko'rsatkichlar bo'yicha aniqlaydilar. Bu ko'rsatkichlar 10 guruxga birlashtiriladi.

1. Iqtisodiy siyosat va iqtisodiy o'sish sur'atlari;
2. Sanoat ishlab chiqarishning samaradorligi;
3. Fan va texnikaning rivojlanganlik darajasi, ilmiy-texnik yutuqlarning sur'atlari;
4. XMTida ishtiroki;
5. Ichki bozorning ko'lami va o'suvchanligi;
6. Moliya tizimining moslashuvchanligi;
7. Davlatning iqtisodiyotni tartiblash vositalari;
8. Mexnat resurslarining sifati va intellektual tarkibi;
9. Mexnat resurslari bilan ta'minlanganlik darajasi;
10. Mamlakatning ijtimoiy-iqtisodiy va ichki siyosiy axvoli.

Dunyo xo'jaligi tizimida AQSH, Germaniya, Yaponiya va SHveytsariya an'anaviy yuqori raqobatbardosh tovarlar ishlab chiqaruvchi mamlakatlardir. Ayni vaqtda, ekspertlar bu mamlakatlarning raqobatbardoshligini umumiy iqtisodiy asoslar bilangina emas, balki ishlab chiqarish tizimining tarkibiy tuzilmasi xam muxim omil ekanligi bilan izoxlaydilar. Chunki, jaxon bozori evolyutsiyasi ehtiyojlariga, iqtisodiyotning moslashuvchanligi ichki imkoniyatlarga mos aniq milliy ixtisoslashuv, qattiq va ma'nosiz raqobatdan qochish - yangi tovarlarni ishlab chiqarish va yangi bozorlarni zabt etish imkonini beradi.

SHuningdek, asosiy eksportchi mamlakatlarning bozor muvaffaqiyati siri - xalqaro bozor ehtiyojlarini oldindan chuqur tushunish va uni o'zlari uchun kerakli yo'nalishda faol shakllantirishdan xam iboratdir.

Xulosa

- Xalqaro mexnat taqsimoti-ayrim mamlakatlarning o'zlari uchun qulay va manfaatli, samarali bo'lgan tabiiy sharoit va resurslar, axolining mexnat malakalari va ko'nikmalari asosida ayrim maxsulotlar yoki ularning turlarini ishlab chiqarishga ixtisoslashuvi va boshqa mamlakatlar bilan ayrboshlashidir.
- Dunyo xo'jaligi-milliy xo'jaliklarning umumlashmasi bo'lib, barqaror sur'atda rivojlanib borayotgan, bozor iqtisodiyotining ob'ektiv qonun va qonuniyatlari asosida xalqaro aloqalarning o'sib borishi bilan birgalikda o'ziga xos qarama-qarshiliklarga xam ega yaxlit xo'jalik tizimidir.
- N.D.Kondrat'ev nazariyasi va boshqa tadqiqotlar asosida dunyo xo'jaligi rivojlanishida 3 ta katta bosqich-industriyalashtirishgacha bo'lgan rivojlanish, industriyalashtirish va industriyalashtirishdan keyingi rivojlanish bosqichlari uchta – birinchi, ikkinchi va uchinchi sanoat inqiloblarini xamda «uzun to'lqinlar» davrlarini (5 ta) ajratish mumkin.
- Dunyo xo'jaligi rivojlanishida asosiy rol' o'ynovchi uchta-geografik, iqtisodiy va informatsion makonlar doirasida faoliyat ko'rsatuvchi ijtimoiy-iqtisodiy va siyosiy tizimlar muxim axamiyatga ega.
- XX asr oxiri va XXI asr boshlaridagi jarayon integratsiyaning umumlashuvi-kapital ishlab chiqarish va mexnatni qamrab olinganligidir. Iqtisodiy integratsiya – turli milliy xo'jaliklarning baynalminallashuvi bo'lib, ikki va undan ortiq milliy xo'jaliklarning yagona xo'jalik mexanizmini yaratish maqsadidagi yaqinlashuvi va uyg'unlashuvidir. Iqtisodiy xayotda integratsiya bir nechta yo'nalishlarga ega.
- Ishlab chiqarishning xalqaro ixtisoslashuvi mamlakatlar o'rtasidagi mexnat taqsimotining o'ziga xos shakli bo'lib, milliy ishlab chiqarishning tabaqalanishi asosida bir xil ishlab chiqarish kontsentratsiyasi va mexnatning umumlashuvi xamda aloxida mustaqil texnologik jarayonlarning ajralib chiqishi, ichki extiyojlardan yuqori turgan maxsulotlar ishlab chiqaruvchi tarmoq va kichik tarmoqlarning bo'linishi orqali o'zaro tabaqalashgan milliy xo'jalik majmualarini to'ldirishdir. Bunday xalqaro ixtisoslashuv jarayonlari xalqaro ishlab chiqarish kooperatsiyasining asosidir.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Karimov. I.A. O'zbekiston XXI asrga intilmoqda. T., «O'zbekiston», 1999.
2. Karimov. I.A. Ozod va obod vatan, erkin va faravon xayot pirovard maqsadimiz. T., «O'zbekiston», 1999.
3. Abirqulov.K.A. AQSHning tabiiy resurs saloxiyati. T., TDIU., 1998.
4. Abdullaev.O. Regional'no'e problemo' razvitiya APK. T.', Mexnat, 1988.
5. Abdullaev.O. Jumxuriyatlararo agrosanoatni tashkil etish muammolari. T., Mexnat, 1991.
6. Abdullaev O. Iqtisodiy geografiya va ekologiya. Namangan 2002.
7. Aliev.M.G, Ishonxodjaeva.D.A., Xachiev.G.A. Ekonomika i finanso' regionov mira v tsifrax sravneniya. T., 1998.
8. Akramov.Z.M. O'zbekiston iqtisodiy geografiyasi. T., O'qituvchi. 1994.
9. Asanov.G, Nabixanov.I., Safarov.Z. O'zbekistonning ijtimoiy — iqtisodiy geografiyasi. T., O'qituvchi. 1994.
10. Atlas mira. M., 1990.
11. Atlas Uzbekistana. 1-2 tom. M., T., 1982, 1985.
12. Axmedov.E., Sayidaminova.Z. O'zbekiston Respublikasi (qisqacha ma'lumotnoma). T.g 1998.
13. Buvanova.T.M., Radionova.I.A. Ekonomicheskaya geografiya SNG i stran Baltii. M., 1994.
14. Jaxon iqtisodiyoti. T., TDIU. 1994.